

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI REKTOR
MASLAHATCHISI PETER MCCANN VA XALQARO ALOQALAR
BO'LIMI BOSHLIG'I S.S.SAIDAXMADOVLARNING AL-FAROBIY
NOMIDAGI QOZOQ MILLIY UNIVERSITETI
UNIVERSITETIGA TASHRIFI**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Al-Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektor maslahatchisi Peter McCann hamda Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Saidumarxon Saidaxmadov 2023 yil 25-26 aprel kunlari Qozoq Milliy universitetiga amaliy tashrif bilan bo'ldilar.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti delegatsiyasini KazNU boshqaruv raisi – rektor Janseit Tuymebaev kutib oldi. Universitet rahbariyati bilan uchrashuvda tomonlar hamkorlik aloqalarini mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar.

Hamkorlik doirasida kimyo va kimiyo viy texnologiya, oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishlarida akademik almashinuv va stajirovkalar, magistratura va doktorantlar ishini birgalikda boshqarish hamda hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.



ХИМИЯ ЖЭНЕ ХИМИЯЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТІ

